SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus son (5-jild)

2025

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V5SI11Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

## *№ S/11 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2025**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY'ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo oʻgʻli – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar boʻlimi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod Oʻktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b,;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Joʻraboy – falsafa fanlari doktori, professor;

Gʻaybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Moʻmin – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Oʻroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Koʻchimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov Gʻaybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Togʻayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 11-maxsus son (dekabr, 2025). - 474 bet.

**MUNDARIJA**

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Рахманкулова Адолат Хушбаковна*
ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ ..... 11-19

*Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич*
ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ ..... 20-29

*Kaypova Malika Dautbay qizi*
MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR ..... 30-33

*Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali*
QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI ..... 34-39

*Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi*
TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIY BOSHQARUVI TARIXSHUNOSLIGI ..... 40-47

*Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы*
ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) ..... 48-54

*Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой*
НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ «АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ ..... 55-64

*Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich*
OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI ..... 65-70

*Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li*
O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) ..... 71-76

*Abdurasulov Akmaljon*
TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK ALOQALARI TARIXI ..... 77-86

*Abatov Aydos*
QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) ..... 87-90

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*
THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH IN DEVELOPING COUNTRIES ..... 91-99

*Jumabayev Adilbek Bazarbayevich*
WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL ..... 100-107

*Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o‘g‘li*
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH ........................................ 108-114

*Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,*
INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY........................................................ 115-123

*Турдиев Гайрат Ялгашевич*
РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНН СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.................... 124-129

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich*
SHAHAR AHOLISINING IJTIMOIY MUAMMOLARINING IJTIMOIY FALSAFIY TAHLILI .. 130-134

*Kenjayeva Dilrabo Rominovna*
INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG‘RIKENGLIK ........................................................................ 135-139

*Karimov Raxmat Raxmanovich*
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ ........................................................................ 140-146

*Ergashev Urolbek Berkinovich*
NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO‘PRIZODA YONDASHUVI......... 147-151

*Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi*
IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.................................... 152-155

*Abdunazarov Lutfillo Mamanovich*
YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI........................................................................ 156-160

*Tangirov Nizom Abduraxmonovich*
NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI ........................................................................ 161-166

*Yusupova Nargiza Ro‘stamovna*
O‘ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.................................. 167-172

*Xudoykulov Azamat Beshumovich*
MA’NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G‘OYAVIY TARBIYANING O‘RNI ........................................................................ 173-177

*Xamdamov Behzod*
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G‘OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI ........................................................................ 178-185

*Bekchanov Sanjar Ibragimovich*
“MODERNIZATSIYA” TUSHUNCHASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR................................................. 186-190

*Adizov Azim Tolibovich*
IJTIMOIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI............................................ 191-196

*Eshmurodov Nabillo*
GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA’NAVIYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI ........ 197-201

*Yokubov Suxrob Firdavsovich*
TASAVVUF TA’LIMOTINING G‘OYAVIY MANBALARI ........ 202-206

*Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna*
GLOBALLASHUV SHAROITIDA O‘ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI ........ 207-210

*Otokulov Abror Sobirkulovich*
JAMIYATDA MA’NAVIY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS’ULIYATINI OSHIRISH OMILI ........ 211-217

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

*Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI ........ 218-222

*Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna*
DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI ........ 223-228

*Ruzibayeva Aziza Kahramanovna*
POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON’S LIFE AND WORK ........ 229-233

*Karimova Ozodaxon Avazxon qizi*
A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS ........ 234-240

*Айтмуратова Турсынай Маратовна*
КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ ........ 241-244

*Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna*
KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI ........ 245-248

*Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi*
THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM ........ 249-258

*Холикова Замира*
СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ........ 259-272

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Турсунова Маликахон Улугбековна*
СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ........ 273-286

*Karaketova Dilnoza Yuldashevna*
JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV ........ 287-294

*Мируктамова Феруза Лутфуллаевна*
ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ ........ 295-300

*Xodjiev Yunus Muxitdinovich*
MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI ........ 301-309

*Akayeva Marapat Abduxalikovna*
FUQAROLIK HUQUQIDA ASOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ... 310-317

*Nishonov Abdulloh Ubaydulloh oʻgʻli*
ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TAʼSIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI ........ 318-326

*Jiyenbayev Baxadir Ospanovich*
EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TAʼMINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI ........ 327-332

*Шомуратова Пальмира Комил қизи*
РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ ........ 333-339

*Калдарбеков Асылжан Оспанович*
РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА ........ 340-351

*Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi*
SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA OʻZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL ........ 352-359

*Urakov Djaxongir Rajabovich*
PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR OʻRTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI ........ 360-365

*Байтурова Аида Набиевна*
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 366-373

*Xushvaqtov Oʻtkir Temirovich*
VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI ........ 374-382

*Mustafaqulov Dilshod Salomovich*
NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI ........ 383-389

*Nomazov Ixtiyor Ismailovich*
ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KOʻRSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QOʻYISH ........ 390-394

*Xoliqnazarov Farhod Bozor oʻgʻli*
INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ... 395-399

*Normuratov Aktam Tulaboy oʻgʻli*
OLIY TAʼLIM TIZIMIDA SUNʼIY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH ........ 400-403

*Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна*
ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ ........ 404-411

*Rasulov Baxtiyor Shavkatovich*
OʻZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI ........ 412-418

*Javliyeva Gullola Abdurahim qizi*
IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA....... 419-425

*Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi*
ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ........ 426-434

*Ядгаров Шахрух*
ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА........ 435-439

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li*
FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH........ 440-446

*Ismaylov Azerbay Saparniyazovich*
SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI........ 447-451

*Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna*
MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI........ 452-457

*Raximova Lolaxon Abduraximovna*
TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI........ 458-462

*Toshmamatova Munisa Toshmamatovna*
UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI........ 463-466

Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna
INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS........ 467-473

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 11 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 1 December 2025
**Accepted:** 15 December 2025
**Published:** 30 December 2025

*Article / Original Paper*

# IMPROVING THE INCLUSION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

**Normuratov Aktam Tulaboy oglu**
Tashkent State Law University
Teacher of the Department of Administrative and Financial Law

**Abstract.** This article analyzes the current state of implementation of artificial intelligence (AI) technologies in the higher education system of Uzbekistan. It examines the possibilities of improving the quality of education through AI-based systems, such as automated assessment, personalized learning, and data analysis. It also analyzes the technical, personnel, and ethical issues associated with the integration of AI and provides suggestions for their elimination.

**Keywords:** artificial intelligence, higher education, digital transformation, personalized learning, data analytics.

# OLIY TA’LIM TIZIMIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH

**Normuratov Aktam Tulaboy o‘g‘li**
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma’muriy va moliya huquqi kafedrasi o‘qituvchisi
http://www.orcid.org/0000-0003-0322-1928
G-mail: aktamnormuradov@gmail.ru

**Annotatsiya.** Ushbu maqola O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini joriy qilishning hozirgi holatini tahlil qiladi. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar, masalan, avtomatlashtirilgan baholash, shaxsiylashtirilgan o‘qitish va ma’lumotlarni tahlil qilish kabi vositalar orqali ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Sun’iy intellekt integratsiyasi bilan bog‘liq texnik, kadrlar va axloqiy muammolar tahlil qilinadi hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** sun’iy intellekt, oliy ta’lim, raqamli transformatsiya, shaxsiylashtirilgan o‘qitish, ma’lumotlarni tahlil qilish.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N57

**Kirish.** Bugungi kunda oliy ta’lim sohasi jadal raqamli transformatsiyaga yuz tutmoqda. Dunyo miqyosida sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim tizimiga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Sun’iy intellekt vositalari o‘qitish jarayonini shaxsiylashtirish, avtomatlashtirilgan baholash, tahliliy tizimlar orqali qaror qabul qilishni takomillashtirish imkonini bermoqda. O‘zbekiston ham bu yo‘nalishda sezilarli qadamlar tashlamoqda. Shu boisdan, Sun’iy intellektni oliy ta’limga samarali integratsiya qilish tizimini takomillashtirish zarurati ortib bormoqda.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-sonli qarorida ham sun’iy intellekt texnologiyalarni keng joriy etishga alohida e’tibor berilgan.

Jumladan “Raqamli Oʻzbekiston — 2030” Strategiyasiga muvofiq hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qoʻllash, raqamli ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta’minlash tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor berilgan.

Aynan oliy ta’lim tizimiga sun’iy intellekt texnologiyalarini jalb qilish bir necha afzalliklarga ega hisoblanadi. Jumladan, Shaxsiylashtirilgan oʻqitish, avtomatlashtirilgan baholash, ta’lim jarayonining monitoring, maslahatchi tizimlarini aytib oʻtish mumkin. Ulardan shaxsiylashtirilgan oʻqitish haqida toʻxtalsak, shaxsiylashtirilgan oʻqitish (personalized learning) sun’iy intellekt yordamida oliy ta’limda oʻquv jarayonini talabalar ehtiyojlariga moslashtirishga imkon beradi. Bu yondashuv ta’lim sifatini oshirish, talabalar faolligini kuchaytirish va oʻqituvchilarning ish yukini kamaytirishda samarali vosita sifatida qaraladi. Dunyo miqyosida bu borada olib borilgan tadqiqotlar va olimlarning fikrlari quyidagicha: Amerikalik olim Beverly Park Woolf “Sun’iy intellekt asosida ishlovchi interaktiv oʻqituvchilar tizimlarini ishlab chiqqan olim, shaxsiylashtirilgan oʻqitishning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Uning fikricha, SI yordamida har bir talabaga moslashtirilgan oʻquv rejalarini yaratish mumkin, bu esa oʻquvchilarning individual ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi” [1] deb ta’kidlaydi.

Shuningdek, Hindistonning Georgia Texnologiya institutida sun’iy intellekt va kognitiv fanlar sohasida tadqiqotlar olib boruvchi olim Ashok Goel “Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limda innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Uning fikricha, Sun’iy intellekt yordamida oʻquvchilarga moslashtirilgan oʻquv materiallari va baholash tizimlarini yaratish mumkin, bu esa ta’lim jarayonini samarali qiladi” deb fikr bildiradi.

Mazkur metod boʻyicha o’zbek olimlarining fikrlariga toʻxtalsak, Osiyo xalqaro universiteti dotsenti, Jasur Ashurov maqolalarida sun’iy intellekt texnologiyalarining oliy ta’lim tizimiga ta’siri, qoʻllanilish sohalari va istiqbollari haqida soʻz yuritadi. Uning fikricha, Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini individuallashtirish, resurslarni boshqarish va interaktiv oʻqitishni rivojlantirishda samaradorlikni oshiradi. Shu bilan birga, texnologik infratuzilma, malakali kadrlar tayyorlash va ma’lumot xavfsizligini ta’minlash bilan bogʻliq muammolar ham mavjud deb [2] ta’kidlaydi. Shuningdek, B.J. Atabaeva, sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida oliy ta’limda masofaviy oʻqitish tizimini rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qiladi. Uning fikricha, Sun’iy intellekt yordamida shaxsiylashtirilgan oʻqitish, avtomatlashtirilgan baholash, virtual yordamchilar va talabalarni qoʻllab-quvvatlash tizimlari yaratish orqali ta’lim jarayonini samarador qilish mumkin. Shuningdek, Sun’iy intellekt texnologiyalarining oliy ta’limga kiritilishidagi asosiy afzalliklari va cheklovlari ham muhokama qilinadi [3].

**Ikkinchi bosqich,** Oliy ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini jalb qilishni takomillashtirishda avtomatlashtirilgan baholash mexanizmining joriy qilinishi hisoblanadi. Avtomatlashtirilgan baholash tizimi bu — bu sun’iy intellekt asosida ishlovchi dasturiy vosita boʻlib, talabalarning bilimini testlar, esse, loyihalar va boshqa topshiriqlar orqali avtomatik tarzda baholaydi. Bu tizim inson omilisiz yoki minimal aralashuv bilan ishlaydi va natijalarni tezkor hamda aniq tarzda taqdim etadi. Natijada bir qancha afzalliklarga erishish mumkin. ***Birinchidan,*** xolislik va shaffoflik ta’minlanadi. Ya’ni, bunda baholashda inson omiliga kam bogʻliq boʻlgani uchun, xolislikni ta’minlaydi. Subyektiv fikrlar, favoritizm yoki adolatsizlik

ehtimoli kamayadi. ***Ikkinchidan,*** vaqt tejalishi va samaradorlikka erishiladi. Bunda o'qituvchilar ko'p vaqt talab etuvchi baholash jarayonlaridan ozod bo'ladi va bu vaqtni ta'lim jarayonining sifatini oshirishga sarflashi mumkin. Talabalar esa natijalarni tezda olishadi va o'z bilimlarini baholashda tezkorlikka ega bo'ladilar. ***Uchinchidan,*** Moslashtirilgan o'qitish imkoniyatini vujudga keltirish. Bundan sun'iy intellekt yordamida har bir talabaning bilim darajasi tahlil qilinib, ularga individual yondashuv asosida topshiriqlar taklif qilishi mumkin. Bu esa ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. ***To'rtinchidan,*** Avtomatlashtirilgan baholash orqali ekologik va iqtisodiy foyda vujudga keladi. Ya'ni, qog'oz sarfini kamaytirish orqali xarajatlar qisqaradi va ekologik barqarorlikka hissa qo'shiladi.

Avtomatlashtirilgan baholash tizimi bu oliy ta'lim tizimining kelajagi uchun muhim qadamdir. U nafaqat baholash jarayonini soddalashtiradi, balki ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini optimallashtirish va shaffoflikni ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt texnologiyalarini chuqur o'rganish va amaliyotga tatbiq etish orqali O'zbekiston ta'lim tizimi raqobatbardosh va innovatsion rivojlanishga erisha oladi.

**Uchinchi bosqich,** Oliy ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini jalb qilishni takomillashtirishda ta'lim jarayonining monitoring hisoblanadi. Bilamizki, oliy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar, ayniqsa sun'iy intellekt (SI) imkoniyatlaridan foydalanish, zamonaviy ta'lim jarayonlarini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ta'lim monitoringi — o'quv jarayonining doimiy nazoratini raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali boshqarish — bugungi kunda ustuvor yo'nalishlardan biridir. U oliy ta'lim tizimida strategik qarorlar qabul qilish, ta'lim sifatini baholash, resurslardan oqilona foydalanish va individual o'quv yondashuvlarini shakllantirishda xizmat qiladi.

An'anaviy monitoring usullari ko'p vaqt va inson resursini talab qiladi. Shu sababli, sun'iy intellektga asoslangan avtomatlashtirilgan monitoring tizimlariga ehtiyoj ortib bormoqda. Natijada bir qancha afzalliklarga erishish mumkin. ***Birinchidan,*** Oliy ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini jalb qilishni takomillashtirishda ta'lim jarayonining monitoring qilinishida Real vaqt rejimining paydo bo'lishi. Sun'iy intellekt yordamida talabalar faoliyati (darsga qatnashish, topshiriqlarni bajarish, test natijalari) real vaqt rejimida kuzatilib, ularning rivojlanish dinamikasi aniqlanadi. ***Ikkinchidan,*** Katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyati vujudga keladi. An'anaviy usullarda ko'p vaqt talab qiladigan statistik tahlillarni Sun'iy intellekt tizimlari soniyalar ichida bajaradi. Natijada, o'quv dasturlaridagi zaif nuqtalar, o'quvchilar orasidagi bilim tafovutlari aniq ko'rinadi. ***Uchinchidan,*** O'quvchi va o'qituvchining faoliyatini baholash tizimi shakllantiriladi. Sun'iy intellekt asosida o'qituvchining metodikasi, darsdagi ishtiroki, talabalarning unga nisbatan faolligi va natijalari asosida xolis baholash imkoni yaratiladi. ***To'rtinchidan,*** Monitoring qilish natijasida xavfli tendensiyalar oldindan aniqlashtiriladi. Ya'ni, Bilim darajasi pasaygan talabalar, beqaror qatnashuv, topshiriqlarni kechiktirish singari xavfli signallar sun'iy intellekt tomonidan tezda aniqlanadi va ogohlantirish tizimi ishga tushadi.

**To'rtinchi bosqich,** Oliy ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini jalb qilishni takomillashtirishda maslahatchi tizimlar shakllantirish hisoblanadi. Tadqiqotlarimiz davomida shuni aniqladiki, bir qancha oliy ta'lim muassasalari hali ham eskirgan texnik infratuzilmadan foydalanmoqda, bu esa Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda katta to'siq bo'lmoqda. Misol uchun, O'quv jarayonida yordam beruvchi virtual yordamchilar va chatbotlar, o'quv yuklamalarini taqsimlash va vaqtni samarali boshqarish uchun tizimdan foydalanish,

shuningdek, talabalar oʻz bilim va koʻnikmalariga qarab oʻquv dasturlarini va talabalar va oʻqituvchilar ilmiy izlanishlar va loyiha ishlarini tanlash imkoniyati vujudga keladi. Masalan, ChatGPT yoki IBM Watson Assistant (IBM kompaniyasining Watson platformasi ta’lim tizimiga sun’iy intellektni joriy etish boʻyicha ilgʻor tizimlarni ishlab chiqqan. U talabalarning bilim darajasini tahlil qilib, shaxsiylashtirilgan oʻquv dasturlarini taqdim etadi) talabalar bilan interaktiv muloqot qilib, ularning savollariga javob beradi va ularga yordam beradi. Shuningdek, avtomatik baholash vositalari hisoblangan Gradescope kabi platformalar oʻqituvchilarga talabalar yozma ishlarini avtomatik ravishda tekshirish va baholashda yordam beradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini oliy ta’lim tizimida joriy etish, shubhasiz, ta’lim jarayonini samarali qilish va talabalarga shaxsiylashtirilgan oʻqish imkoniyatlarini yaratishda katta rol oʻynaydi. Biroq, texnik infratuzilma, xavfsizlik, oʻqituvchilarni tayyorlash va moliyaviy resurslar kabi muammolarni hal qilish zarur. Agar bu muammolar yechimi topilsa, Sun’iy intellekt texnologiyalarining oliy ta’limga integratsiyasi ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

Oliy ta’lim tizimida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini joriy etish, hozirgi kunda ta’lim sifatini yaxshilash, talabalarga shaxsiylashtirilgan ta’lim imkoniyatlarini yaratish, ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish va oʻquv jarayonlarini optimallashtirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq, bu texnologiyalarni joriy qilishning muvaffaqiyati bir qator muammolarga bogʻliq boʻlib, ular texnik infratuzilma, oʻqituvchilarni yangi tizimlarga moslashtirish, moliyaviy resurslar va ma’lumotlar xavfsizligi kabi sohalarda mavjud.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalarini oliy ta’lim tizimiga joriy etish, ta’lim sifatini oshirish va ilmiy izlanishlar natijalarini yaxshilash uchun katta imkoniyatlarni yaratadi. Bu texnologiyalar nafaqat oʻquv jarayonini avtomatlashtiradi, balki individual yondashuv, samarali monitoring va resurslardan oqilona foydalanishga ham imkon beradi. Oʻzbekiston uchun bu yoʻnalishdagi islohotlarni tizimli amalga oshirish — global ta’lim maydonida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Shu bois, Sun’iy intellekt texnologiyalarini tatbiq qilish tizimini takomillashtirish strategik ahamiyatga ega boʻlgan vazifadir. Biroq, bu jarayonni amalga oshirishda texnik infratuzilma, oʻqituvchilarni tayyorlash, xavfsizlik masalalari va moliyaviy resurslarni boshqarish kabi bir qator muammolarni hal qilish zarur. Agar bu muammolar hal etilsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining oliy ta’lim tizimiga integratsiyasi ta’limning sifatini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

## Adabiyotlar/Литература/References:


1. Yusupov S. Legalization of artificial intelligence: Significance and necessity //Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 26. – С. 48-50.
2. J.Ashurov “Oliy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: muammolar va istiqbollar” 2024.
3. B.J.Atabaeva “Ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida oliy ta’limda masofaviy o’qitish tizimini rivojlantirish imkoniyatlari. (2025). образование наука и инновационные идеи в мире, 1(1), 9-14.
4. I Arroyo, BP Woolf, JM Royer, M Tai - Artificial intelligence in education, 2009

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/11 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).